

## UYUSHGAN JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

**Baxramov Xojiakbar Xusanovich**

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
Malaka oshirish instituti dotsenti (+99899) 937-14-78.

**Subanov Olimjon Suyarkul o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
Malaka oshirish instituti katta o'qituvchisi, dotsent (+99893) 551-71-30.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19321002>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada hozirgi globallashuv sharoitida uyushgan jinoyatchilik shakllari, jamoat tartibini buzish, zo'rvonlik va hokimiyat vakillariga qarshilik ko'rsatish kabi jinoyatlarni o'z ichiga oladi. Maqolada bezorilik, jinoiy uyushmalar va noqonuniy jangovar musobaqalar tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** uyushgan jinoyatchilik, bezorilik, jamoat tartibi, jinoiy javobgarlik, ma'muriy javobgarlik, yoshlar xavfsizligi, jangovar sport, profilaktik chora-tadbirlar, qonunchilikni takomillashtirish, huquqni muhofaza qilish.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА В БОРЬБЕ С ОРГАНИЗОВАННОЙ ПРЕСТУПНОСТЬЮ

**Аннотация.** В статье рассматриваются современные формы организованной преступности в условиях глобализации, включая нарушения общественного порядка, насилие и сопротивление представителям власти. Анализируются хулиганство, деятельность преступных организаций и незаконные боевые соревнования.

**Ключевые слова:** организованная преступность, хулиганство, общественный порядок, уголовная ответственность, административная ответственность, безопасность молодежи, боевой спорт, профилактические меры, совершенствование законодательства, охрана правопорядка.

## IMPROVING LEGISLATION IN THE FIGHT AGAINST ORGANIZED CRIME

**Abstract.** The article examines modern forms of organized crime in the context of globalization, including public order violations, violence, and resistance to law enforcement authorities. Hooliganism, criminal organizations, and illegal combat sports competitions are analyzed.

**Keywords:** organized crime, hooliganism, public order, criminal liability, administrative liability, youth safety, combat sports, preventive measures, legislative improvement, law enforcement.

Hozirgi globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida jinoyatchilik, ayniqsa, uyushgan jinoyatchilikning mazmun-mohiyati, shakl va usullari sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Zamonaviy jinoiy guruhlar faoliyati nafaqat an'anaviy jinoyat turlari bilan cheklanib qolmasdan, balki jamoat tartibini buzish, zo'rvonlikni namoyishkorona tarzda amalga oshirish, shuningdek, o'zini qonundan ustun qo'yish kabi xavfli tendensiyalar bilan ham tavsiflanmoqda. Bu esa jamoat xavfsizligi, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda davlat barqarorligiga jiddiy tahdid soladi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, mazkur sohada keng ko'lamlı huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoev rahbarligida jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini takomillashtirish, uni zamonaviy tahdidlarga moslashtirish hamda samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Prezident huzurida o'tkazilgan muhokamalarda uyushgan jinoyatchilikning yangi ko'rinishlari, jumladan, jamoat joylarida bezorilik harakatlarini ochiqchasiga sodir etish, o'qotar qurollardan foydalanish yoki ularni namoyish qilish orqali qo'rqitish, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillariga qarshilik ko'rsatish kabi holatlar ortib borayotgani alohida qayd etildi. Bu esa amaldagi jinoiy-huquqiy choralarning yetarli emasligini ko'rsatib, ularni qayta ko'rib chiqish va kuchaytirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, yoshlar o'rtasida jangovar (aralash) sport turlari bo'yicha noqonuniy musobaqalarni tashkil etish holatlari ham jinoyatchilikning yangi shakllaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday harakatlar nafaqat jamoat tartibiga, balki yosh avlod tarbiyasi va ijtimoiy muhitga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Amaldagi qonunchilikda mazkur turdagi qilmishlar uchun aniq javobgarlik choralari belgilanmaganligi esa ushbu muammoni yanada dolzarblashtirmoqda.

Mazkur holatlardan kelib chiqib, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy asoslarini mustahkamlash, jinoiy javobgarlikni kuchaytirish, yangi turdagi jinoyatlar uchun tegishli sanksiyalarni joriy etish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini institutsional jihatdan takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etish maqsadida jinoiy guruhlar, uyushmalar tuzish, ularni moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, noqonuniy faoliyatni tashkil etishga qaratilgan harakatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilash bo'yicha tashabbuslar ilgari surilmoqda.

Mazkur masalani O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks normalari asosida tahlil qilish jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, Jinoyat kodeksida bezorilik jinoyati alohida tarkib sifatida nazarda tutilgan bo'lib, u jamoat tartibini qasddan buzish, jamiyatga ochiqdan-ochiq hurmatsizlik bildirish, badanga shikast etkazish kabi harakatlarni qamrab oladi. Mazkur jinoyatning og'irlashtiruvchi holatlariga qurol ishlatish yoki uni namoyish qilish, guruh bo'lib sodir etish, shuningdek, takroran amalga oshirish kiradi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, amaldagi sanksiyalar ayrim hollarda profilaktik ta'sir ko'rsatishda yetarli emas. Bu esa jinoyat huquqining asosiy prinsiplaridan biri – jazoning muqarrarligi va adolatliligi tamoyillarining to'liq ta'minlanmayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakillariga qarshilik ko'rsatish holatlari ham Jinoyat kodeksida alohida jinoyat sifatida belgilangan. Ammo ushbu normalarning amaliyotda qo'llanilishidagi muammolar, jumladan jazo choralarning nisbatan yengilligi yoki yetarli darajada emasligi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda.

O'tkazilgan tahlillarning yana bir muhim yo'nalishi – jinoiy uyushmalar faoliyati bilan bog'liq huquqiy tartibga solish masalasidir. Jinoyat kodeksida jinoiy uyushma tashkil etish, unda ishtirok etish yoki uni moliyalashtirish uchun javobgarlik belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda mazkur sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash va isbotlash jarayonlarining murakkabligi saqlanib qolmoqda. Shu bois, mazkur jinoyatlarning tarkiblarini aniqlashtirish va sanksiyalarni kuchaytirish zarurati mavjud.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks nuqtai nazaridan qaralganda esa, jamoat tartibini buzish bilan bog'liq ayrim huquqbuzarliklar uchun ma'muriy jazo choralari nazarda tutilgan. Biroq, jangovar (aralash) sport turlari bo'yicha noqonuniy musobaqalarni tashkil etish va ularda ishtirok etish uchun amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda javobgarlik belgilanmagan. Bu esa huquqiy bo'shliqni yuzaga keltirib, mazkur faoliyatning nazoratsiz qolishiga sabab bo'lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik choralari belgilash orqali bunday huquqbuzarliklarning oldini olish mumkin. Xususan, noqonuniy janglarda ishtirok etgan shaxslarga nisbatan jarima yoki ma'muriy qamoq kabi choralarni belgilash profilaktik ahamiyatga ega bo'ladi. Bu esa jinoyat huquqidagi "prevensiya" funksiyasini ma'muriy huquq vositalari orqali ta'minlash imkonini beradi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks normalari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, jamoat tartibini qo'pol ravishda buzish, ayniqsa, guruh tarkibida yoki uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilayotgan bezorilik harakatlari uchun belgilangan jazo choralari yetarli darajada profilaktik ta'sirga ega bo'lmayapti. Xususan, o'qotar quroldan foydalanish yoki uni namoyish qilish bilan bog'liq holatlar, huquqbuzarlikning takroran sodir etilishi, shuningdek, hokimiyat vakillariga qarshilik ko'rsatish kabi og'irlashtiruvchi holatlarda ham amaldagi sanksiyalar huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik darajasiga to'liq mos kelmaydi deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, jangovar (aralash) sport turlari bo'yicha noqonuniy musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish, ularga yoshlarni jalb qilish holatlari ortib bormoqda. Ammo, mazkur faoliyat uchun yoki ularda ishtirok etganlik uchun qanday holatlarda ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik qo'llanilishi aniq belgilanmagani huquqiy bo'shliqni yuzaga keltirmoqda. Bu esa o'z navbatida zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi muhit shakllanishiga va yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga olib kelmoqda.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida qonunchilikni kompleks ravishda takomillashtirish zarur. Avvalo, Jinoyat kodeksida bezorilik jinoyati uchun jazo choralari kuchaytirish, ayniqsa, uning og'irlashtiruvchi holatlarini aniqroq belgilash va sanksiyalarni differentsiatsiya (frans. differentiation, lot. differentia - farqlanish, farq) qilish maqsadga muvofiq. Shuningdek, jinoiy uyushmalarni tashkil etish, moliyalashtirish va ular faoliyatini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq normalarni qat'iyashtirish lozim.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga esa jangovar sport turlari bo'yicha noqonuniy musobaqalarni birinchi marotaba tashkil etganlik uchun shuningdek, noqonuniy musobaqalarda ishtirok etganlik uchun ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi normalarni kiritish taklif etiladi.

Shu bilan birga, bunday musobaqalarni ma'muriy jazo qo'llanganidan keyin tashkil etgan shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik, shuningdek bunday noqonuniy musobaqalarda odamlarning tan jarohati olishiga, ommaviy tartibsizliklar kelib chiqishiga, odamlar o'limiga olib kelish holatlari uchun kuchaytirilgan jinoiy javobgarlik belgilash orqali ushbu faoliyatni to'liq huquqiy nazoratga olish mumkin.

Taklif etilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar amalga oshirilgan taqdirda, jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligi oshishi kutilmoqda. Bunday qilmishlar uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlikni belgilash, majud jazo choralarining kuchaytirilishi va ularning aniq differentsiatsiya qilinishi jinoyatlarning oldini olishda muhim profilaktik omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, noqonuniy jangovar musobaqalarga nisbatan javobgarlikning joriy etilishi yoshlarning bunday xavfli faoliyatlarga jalb etilishining oldini oladi hamda jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, qonunchilikni takomillashtirish orqali jamoat tartibi va qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash hamda huquqiy davlat tamoyillarini rivojlantirishga erishiladi.

Jamiyatda uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishda xorijiy davlatlarning tajribasi qonunchilikni takomillashtirish, profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishda va ma'muriy javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan.

**Rossiya Federatsiyasining** Jinoyat kodeksida uyushgan jinoyatchilikka qarshi qat'iy choralar ko'rilgan. Masalan, jinoiy guruh tashkil etish va uning faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun jazo choralari aniq belgilangan. Shu bilan birga, bezorilik va jamoat tartibini buzish bilan bog'liq jinoyatlar uchun jazo qoidalari differensiyalashtirilgan va og'irlashtiruvchi holatlar (qurol ishlatish, takroran sodir etish) alohida nazarda tutilgan.

**AQSH**da uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishda faqat jinoyat qonunlari emas, balki ma'muriy va profilaktik choralar ham keng qo'llaniladi. Masalan, "Gang Prevention Programs" kabi dasturlar yoshlarni uyushgan guruhlardan uzoqlashtirish va ularni ijtimoiy faoliyatga jalb qilish orqali jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladi.

**Yevropa Ittifoqi mamlakatlari (Germaniya, Fransiya)** Germaniya va Fransiyada jamoat tartibini buzish va noqonuniy o'tkaziladigan janglar (jangovar sport turlari bilan bog'liq noqonuniy musobaqalar) uchun aniq ma'muriy va jinoiy jazolar mavjud. Germaniyada, masalan, "Ordnungswidrigkeiten" (ma'muriy huquqbuzarliklar) tizimi orqali yoshlarning sport musobaqalarida xavfli faoliyatlarga jalb etilishiga barvaqt ta'sir ko'rsatiladi. Fransiyada esa uyushgan guruhlarning moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi va noqonuniy faoliyati uchun katta jarimalar va qamoq jazolari belgilangan.

O'zbekistonda uyushgan jinoyatchilik va bezorilikka qarshi qonunchilik asoslari mavjud bo'lsa-da, zamonaviy tahdidlar va yangi huquqbuzarlik turlari uchun jazo choralari yetarli emas. Xususan, jangovar sport turlari bo'yicha noqonuniy musobaqalar va yoshlar orasidagi huquqbuzarliklar uchun aniq javobgarlik belgilanmaganligi qonunchilikdagi bo'shliqni namoyon qiladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, uyushgan jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish uchun qonunchilikni qat'iylashtirish, jazo choralarini differensiyalash va profilaktik choralarni keng qo'llash zarur. Shuningdek, yoshlarni ushbu xavflardan himoya qilish va jamoat tartibini ta'minlash maqsadida ma'muriy va jinoiy javobgarlik normalarini mustahkamlash lozim. Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilganda, jamiyatda huquqiy tartibot va fuqarolar xavfsizligi mustahkamlanadi, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligi oshadi.

Shu bois, jamiyatda uyushgan jinoyatchilikka va ularning yangi ko'rinishdagi huquqbuzarliklariga qarshi samarali kurashish uchun quyidagi chora-tadbirlarni ilmiy asoslangan holda ishlab chiqdik:

**1) Jinoyat kodeksi normalarini kuchaytirish:** bezorilik, jinoiy uyushma faoliyati, qurol qo'llash va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga qarshilik ko'rsatish kabi holatlar uchun jazo choralarini differensiyalash va og'irlashtiruvchi holatlarni aniq belgilash.

**2) Ma'muriy javobgarlikni takomillashtirish:** jangovar sport turlari bo'yicha noqonuniy musobaqalar tashkil etgan shaxslar va musobaqalarda ishtirok etgan shaxslarga nisbatan aniq ma'muriy javobgarlik va jazo choralarini kiritish.

3) **Ijtimoiy profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish orqali** yoshlarni xavfli guruhlardan himoya qilish, ularni sog‘lom ijtimoiy muhitga jalb qilish, jinoyatchilikka qarshi profilaktik dasturlarni keng qo‘llash.

4) **Institutsional mexanizmlarni mustahkamlash:** huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini samaradorligini tubdan takomillashtirish, qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishini nazorat qilish va sodir etilgan jinoyatlarni sabab va shart sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish mexanizmlarini amalga oshirish.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilganda, jamiyatda huquqiy tartibot va qonuniylik mustahkamlanadi, yoshlar xavfli guruhlarga jalb qilinmasligi ta‘minlanadi, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligi sezilarli darajada oshadi va davlat barqarorligi mustahkamlanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – Toshkent, 2026.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks – Toshkent, 2026.
3. Mirziyoev Sh. – “Uyushgan jinoyatchilik va kiberjinoyatlarga qarshi kurashish takomillashtiriladi” – Toshkent, 2026.
4. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi – Moskva, 2022.
5. Gang Prevention Programs – United States Department of Justice, 2021.
6. Germaniya Federativ Respublikasi “Ordnungswidrigkeiten” kodeksi – Berlin, 2022.
7. France Penal Code (Code pénal) – Parij, 2022.
8. Abdullaev F. “O‘zbekistonda uyushgan jinoyatchilikka qarshi huquqiy siyosat” – Toshkent, 2021.
9. Toshmatov J. “Yoshlar va jangovar sport turlari: huquqbuzarlikning profilaktikasi” – Toshkent, 2022.